

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10655278>

E.Tursunaliyeva

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasida o'qituvchisi

M.Tursunboyeva

D.Saidov

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bolalar to'g'risida subyektiv fikr yuritilgan bo'lib, bugungi kunda bola tarbiyasida e'tibor berish kerak bo'lgan muhim omillar va undan tashqari hozirgi kunda ularga ko'rsatilayotgan zo'ravonlik holatlari to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *OAV, statistika, bola huquqlari, voyaga yetmaganlar, jinoiy tajovuz*

Ma'lumki, bolalar hayotimiz shodligi, millat umidi va quvonchimiz sababchilaridan hisoblanadi. Ular mehr, qolaversa, oila fayzi egalari ham demak. Bugungi kunda bola tarbiyasi, ularni millat va kelajak taraqqiyoti hamda kamolot yo'lida tarbiyalashda ularga mehr-muruvvat ko'rsatish bilan bir qatorda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bolaning maqsad va orzu istaklariga quloq tutish va farzandda erkin fikrlash potensialini shakllantirish har bir ota-onaning asosiy vazifasiga aylanishi shart va muhimdir.

Bugungi kunda bolalarga nisbatan nohaqlik va ularning huquqini poymon etish kabi holatlar uchrayotgani dilni xira qiladi, afsuski. Hukumatimiz tomonidan shu va shu kabi holatlarning oldini olish maqsadida bola huquqlari to'g'risida qonunchilikda ham alohida kodeks farmonlar joroy etildi.

Bola huquqlari to'g'risidagi qonun va qonunchilik palatasi tomonidan

2007-yil 3-noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda tasdiqlangan.

Bola huquqlari to'g'risidagi qonun 4 bob, 32 moddadan iborat;

1 bob - Umumiy qoidalar (1-6 moddalar)

2 bob - Bola huquqlarining asosiy kafolatlari (7-23 moddalar)

3 bob - Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga huquqlarning qo'shimcha kafolatlari (24-29 moddalar)

4 bob - Yakunlovchi qoidalar (30-32 moddalar)

Undan tashqari hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bola huquqlariga oid 15 ta kodeks, 20 dan ortiq qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 dan ortiq farmonlari, vazirlar mahkamasining 100 dan ortiq qonunlari va 70 dan ortiq huquqiy normativ hujjatlari bor.

OAV ta'kidlashicha, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar hamda xotin-qizlarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar soni ortib borayotgani ma'lum qilindi.

Hususan, 2019-yilda 16 yilgacha to'lmagan bola bilan jinsiy aloqa qilishda aybli deb topilganlar soni 99 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020-yilda 153, 2020-yilda 216, 2022-yilda 238 nafarni tashkil etgan.

14 yoshga to'lmagan bola bilan zo'rlik ishlatib, jinsiy aloqaga kirishish sodir etganlar soni 2019-yilda 52, 2020-yilda 35, 2021-yilda 57, 2022-yilda 73-nafarni tashkil etgan.

Mazkur holat to'g'risida "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning 34-moddasida aytiladiki, "Ishtirokchi davlatlar bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Ana shu maqsadlarda ishtirokchi davlatlar, jumladan, milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada quyidagi holatlarning oldini olish uchun hamma zarur chora tadbirlarni ko'radilar;

Bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash;

Bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish;

Bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayyorlash maqsadlarda foydalanish".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, har qanday jafo albatta kun kelib, o'z jazosini topadi. Bolalar - hayot gullari, millat oynasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
2. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya
3. Kun.uz nashri
4. Azamova, Z., & Tursunalieva, E. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Their Employment. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 122-126.
5. Tursunalieva, E., & Azamova, Z. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Ensuring Their Employment. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 171-175.
6. Аъзамова, З., & Турсуналиева, Э. (2022). роль и социально-экономическое значение пенсионной системы в системе социальной защиты. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 740-745.
7. Tursunaliyeva, E., & Sharofiddinova, R. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 230-233.
8. Tursunalieva, E., & Teshaboeva, N. (2023). Mechanisms of Rehabilitation and Training of the Disabled. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 57-59.

9. Tursunaliyeva, E., Rohila, A., Nilufar, E., & Madina, T. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 343-346.
10. Tursunaliyeva, E., & Kubayeva, I. (2023). RISK FACTORS IN RELATIVE ATTITUDE TO CHILDREN. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 347-350.
11. Tursunaliyeva, E. (2023). THE CONCEPT OF SPIRITUALITY IN THE ACTIVITY OF THE SOCIAL WORKER DOLLARITY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1928-1932.
12. Tursunaliyeva, E. (2023). PROBLEMS OF ORPHANS AND CHILDREN LEFT WITHOUT PARENTAL CARE IN OBTAINING QUALITY EDUCATION AND UPBRINGING IN SCHOOLS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1921-1927.
13. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. Research Focus, 1(2), 301-306.
14. Shahnoza, M., & Umida, D. (2023). SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 140-143.
15. Ismoyilovna, H. G. (2023). O 'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI TIZIMIDAGI HARBIY IJTIMOYIY ISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2293-2300.
16. Sharipova, K. (2023). YETIM VA OTA-ONA QAROMOG 'ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOYIY HIMOYALASHDA XALQARO RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI. Academic research in educational sciences, 4(Periodical Collection 7), 177-183.
17. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 780-783.
18. Толибов, Б. (2023). ЭХТИЁЖМАНД ТОИФАДАГИ АҲОЛИ ҚАТЛАМЛАРИГА КЎРСАТИЛАЁТГАН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАРНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МАМЛАКАТИМИЗДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР ВА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(4), 3-13.
19. Абдурахмонова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ–ЖАМИЯТ ХАЁТИНИНГ БОШ БЎҒИНИ СИФАТИДА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 704-709.